

## LANDSHAFT REJALASHTIRISH TUSHUNCHASI XUSUSIDA

**Sattorov Q.I.** - Qarshi davlat universiteti talabasi.

**Usmanova R** – Qarshi davlat universiteti dotsenti. O'zbekiston.

**Аннотация.** Maqolada landshaftshunoslikda yangi yo`nalishlarning, xususan landshaft rejalashtirishning vujudga kelishi bayon etilgan. Shuningdek, landshaft, landshaft rejalashtirish, landshaft me`morchiligi, landshaft dizayni kabi tushunchalarning talqini ochiqqlangan. Landshaft rejalashtirishning shaxarsozlikda, qishloq xo`jaligi, yerdan, suv resurslaridan foydalanish, ekologik va boshqalardagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Калит so‘zlar:** shaxarsozlik, landshaft rejalashtirish, landshaft me`morchiligi, landshaft dizayni, qishloq xo`jaligi, yer tuzish, ekologik, suv resursi.

## О ПОНЯТИИ ЛАНДШАФТНОГО ПЛАНИРОВАНИЯ

**Сатторов К.И.** - студент Каршинского государственного университета.

**Усманова Р** – доцент Каршинского государственного университета.  
Узбекистан.

**Аннотация:** В статье рассматривается возникновение новых направлений в ландшафтоведении, в частности ландшафтного планирования. Также раскрывается интерпретация таких понятий, как ландшафт, ландшафтное планирование, ландшафтная архитектура, ландшафтный дизайн. Освещается важность ландшафтного планирования в градостроительстве, сельском хозяйстве, землепользовании, водопользовании, экологии и т. д.

**Ключевые слова:** градостроительство, ландшафтное планирование, ландшафтная архитектура, ландшафтный дизайн, сельское хозяйство, землеустройство, экология, водные ресурсы.

## ABOUT THE CONCEPT OF LANDSCAPE PLANNING

Sattorov Q.I. - Student, Karshi State University.

Usmanova R. - Associate Professor, Karshi State University. Uzbekistan.

**Abstract:** The article examines the emergence of new trends in landscape studies, in particular landscape planning. The interpretation of such concepts as landscape, landscape planning, landscape architecture, and landscape design is also revealed. The importance of landscape planning in urban planning, agriculture, land use, water use, ecology, etc. is highlighted.

**Key words:** urban planning, landscape planning, landscape architecture, landscape design, agriculture, land management, environmental, water resources.

**Kirish.** Tabiatdan foydalanishning katta miqyoslari sayyoramizda regional va global ekologik muammolarni keskinlashuviga hamda ayrim mintaqalarda ekologik tanazzulning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Tabiiy regionalarda tabiiy – hududiy komplekslar tabiatdan foydalanish jarayonida antropogen ta'sir natijasida o'zgartirilmoqda. Bunday jarayonlarni oldini olishda yoki unga qarshi kurashda landshaft tavsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga egadir.

**Asosiy qism.** Bizga ma'lumki, tabiiy geografiya fanlari tarmog'iga kiradigan fanlardan biri landshaftshunoslikdir. Sh.S.Zokirov (2016) ta'biri bilan aytganda, landshaft - bir xil geologik tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo'lgan, o'zaro bog'liq kichik geotizimlar yig'indisidan iborat genetik jihatdan bir butun bo'lgan geotizimdir [2]. Zero, tabiatdagi mavjud komponentlarning barchasi (tog` jinsi, tuproq, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosi)ni o'z obyekti sifatida o'rganadigan fanlar ko'pchilikni tashkil qiladi. XIX asr boshlarida tizimli yondashuvga ega bo'lgan, geografiyada shakllana boshlagan yo'nalishlardan biri landshaftshunoslik fani hisoblanadi. Keyinchalik soha olimlarining tadqiqotlari asosida landshaftshunoslikda qator yo'nalishlar shakllana boshladi. Bunday yo'nalishlar XX asrning o'rtalarida geokimyo, biokimyo, geofizika, biofizika kabilardir. Landshaftshunoslikning ana shunday yangi ilmiy-amaliy yo'nalishi hamda faoliyat turlaridan biri landshaft rejalashtirish yo'nalishi hisoblanadi.

A.V.Xoroshev landshaft geokimyosi va landshaft ekologiyasini ham landshaftshunoslik qatorida, landshaft rejalashtirish nazariyasini shakllantirishda asosiy manba va tushunchalari sifatida alohida qayd etadi. Landshaft-geokimyoviy tushunchalar asosida landshaftni rejalashtirish maqsadlari uchun rejalashtirish tahlilining umumiy sxemasini I.A.Abessalomova tomonidan taklif etilgandir [8;].

Landshaft rejalashtirishning hozirgi mazmunda vujudga kelishi, dastlab, obyektning landshaft tadqiqotlari, tanlangan hududni rejalashtirish, u yerda landshaft me'morchiligi faoliyatining rivojlanishini keng ko'lamda tashkil etishni taqozo etadi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, yerdan foydalanishda, suv obyektlarini tartiblashtirish va boshqalar doirasida tadbirlarni amalga oshirish landshaft rejalashtirish bilan bevosita chambarchas bog'liqdir.

Chet ellik (amerikalik, yevropalik) olimlar tadqiqotlarida landshaft rejalashtirish haqidagi ishlarni ko'rish mumkin. Yerdan foydalanishda ekologik yondashuv yo'nalishida esa rossiyalik olimlarning tadqiqotlarida uchratamiz. A.V.Xoroshev fikricha, "**landshaft rejalashtirish** - bu ko'p funktsiyali yerdan foydalanishni hududning landshaft tuzilishiga ekologik xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy jihatdan kam ziddiyatli moslashuvi uchun hududiy yechimlarning ierarxik tizimi" [7;]. A.V.Drozdov landshaft rejalashtirish atamasining paydo bo'lishini Germaniyalik Genrix Vipking bilan bog'laydi va shunday yozadi: "1934 yilda Genrix Vipking "landshaftni tashkil etish" yangi o'quv fanini, shuningdek "landshaftni yaxshilashni rejalashtirish" tushunchasini kiritdi – keyinchalik qisqartirilgan shaklda u "landshaft rejalashtirish" ga aylandi", deb bayon etgan [1;]. YE.Y.Kolbovskiy esa, "landshaft rejalashtirish – bu geografiya, rayon planirovkasi, shaharsozlik va yer tuzish qirrasida joylashgan faoliyat sohasidir"-deb ta'kidlaydi [4;].

Me'morchilik adabiyotlarida quyidagicha izoh berilgan: Landshaft – ochiq havoda ishlash va dam olish uchun yaratilgan, tarkibi tabiiy (o'simliklar, relyef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun'iy (me'moriy muhandislik inshootlari)

ishlanmalari bilan badiiy, biologik va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud (K.D.Raximov, A.S.Uralov, 2015).

A.V.Drozdov bu haqida shunday fikr bildiradi: “Yer tuzuvchi kasbi eng qadimgi kasblardan biri. Landshaft arxitektorlari yangi davr boshlanishidan oldin ham bog‘larni va bog‘lari bo‘lgan saroy va villalar yaratganlar” [1;].

Yuqoridagi fikrlardan ma‘lumiki, me‘morchilik haqidagi adabiyotlarida, landschaft rejalashtirish atamasini boshqacha bayoni ham bor: Landshaftlar rejalashtirish – o‘lka va mintaqa miqyosida tabiiy landschaftlarni saqlab qolish, yangilarini shakllantirish, qo‘riqlash va foydalanishga doir umumiy muammolar bilan shug‘ullanadi. Bu sohaga xos xususiyat shundaki, u juda keng va katta hududlarning landschaft muhitini shakllantirishga doir ishlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi” [5;].

K.Xakimovning keltirishicha, landschaftni rejalashtirish — landschaft arxitekturasining bir tarmog‘i. Erv Zube (1931-2002-yillarda) fikriga ko‘ra, landschaftni rejalashtirish - bu tabiiy jarayonlar va muhim madaniy va tabiiy resurslarni himoya qilgan holda raqobatdosh yerdan foydalanish o‘rtasida obodonlashtirishni rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida belgilanadi [6;].

**Landshaft dizayni** – turli xil landschaft (manzara) obyektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha, landschaft obyektlarining sun‘iy elementlarini badiiy estetik va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funksiyalarga moslab yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi [5;]. Demak, yuqorida berilgan ta‘riflardan ko‘rinadiki, landschaft me‘morchiligi (arxitekturasi) va landschaft dizayni tushunchasi me‘morchilik (arxitektura) sohasiga tegishlidir.

Landshaft rejalashtirish haqidagi tadqiqotlar tarzidagi birinchi bajarilgan amaliy ishlarni deyarli barcha davrlarda uchratishga to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, qadimdan xalqlar, davlatlar o‘rtasida tabiat resurslariga boy, tabiiy sharoiti har tomonlama qulay bo‘lgan, tuproqlari unumdor bo‘lgan hududlar uchun doimo katta kurashlar olib borilgan. Masalan, A. Makedonskiy tomonidan Finikiya, rimliklar tomonidan esa Karfagen, yevropaliklarning Hindistonga va O‘rta Osiyoga

qiziqishlari hamda unumdor yerlarining bosib olinishiga boʻlgan harakatlarini aytish joiz. Bu hududlarda rejalashtirilgan agrolandshaftlar paydo boʻlib, juda yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turganligini va butun imperiya uchun oziq-ovqat yetkazib beruvchi hudud boʻlganligini tarixiy manbalarda keltiriladi [3;].

Oʻrta Osiyo hududida boʻlgan Sugʻdiyoning qadimgi bogʻlari haqida antik davr mualliflari, jumladan Diodor va Kvint Kursiy Ruflar koʻplab maʼlumotlar keltirgan [5;]. Oʻzbekistonda ham bunga oʻxshash ishlar amalga oshirilgan. Masalan, Sohibqiron Amur Temur oʻlka tabiatini juda eʼzozlagan holda undan zavq va kuch olgan hamda tabiiy omillarni eʼtiborga olib meʼmoriy inshootlarni qurishda hamda tabiat bogʻlarini yerdan oqilona foydalanish asosida rejalashtirgan. Amur Temur boshchiligida Samarqand atrofida bir-biridan chiroyli 12 tadan ortiq bogʻ-parklar qurilgan. K.Xakimovning keltirishicha, Ispaniyalik elchi Klavixo va tarixchi Sh. Ali Yazdiyning asarlarida 1398-yilda tashkil etilgan eng yirik bogʻ-parklardan biri Bogʻi Jahonnamoga taʼrif berib oʻtilgan. Ali Yazdiy shunday yozadi: “Muarrixlarning guvohligiga koʻra, bogʻ shu qadar ulkan ekanki, u yerda bir ot yoʻqolib qolib olti oydan keyin topilibdi” [6;].

**Xulosa.** Landshaft rejalashtirish haqidagi bunday ishlarni koʻplab misollar keltirsa boʻladi. Tabiat bogʻlarini rejalashtirishda albatta, tabiiy landshaftlarining oʻziga xos xususiyatlariga ahamiyat berilgan. Har qanday hududda landshaftlarini rejalashtirishda tabiatdan foydalanish tizimini takomillashtirishning geoekologik muammolarini hal etish, tabiiy resurslardan foydalanishda vujudga keladigan ekotizimlarning samaradorligini taʼminlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дроздов А.В., Алексеенко Н.А. и др. Ландшафтное планирование с элементами инженерной биологии. - Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. -239 с.
2. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. Ландшафтшунослик. Т.: Турон замин зиё, 2016. –200 б.

3. Казаков Л.К. Ландшафтоведение с основами ландшафтного планирования. – Москва: Академия, 2008. -336 с.
4. Колбовский Е.Ю. Ландшафтное планирование. – Москва: Академия, 2008.- 336 с.
5. Уралов А.С., Адилова Л.А. Ландшафт архитектураси. Т.: Чўлпон, 2014. 385 б.
6. Хакимов К. Бахмал тумани табиатидан фойдаланишда ландшафт режалаштиришни кўллаш// монография Т.: “Ma’rifat” 2023. 227 б.